

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA O‘YIN FAOLIYATINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Qahhorova Marjona Ikromjon qizi

+998912530214 qahhorovamarjona99@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20554360>

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘yin faoliyatining pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. O‘yin faoliyatining bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni, uning aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, o‘yin faoliyatining tarixiy-pedagogik asoslari, bolalar o‘yinlarining turlari hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinlarga pedagogik rahbarlik qilishning o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘yin faoliyati bolalarning bilish jarayonlarini faollashtirish, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish va ta’lim faoliyatiga tayyorlashning samarali vositasi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin faoliyati, maktabgacha ta’lim, bola shaxsi, rivojlanish, tarbiya, ijodiy o‘yinlar, qoidali o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, pedagogik jarayon, ijtimoiylashuv.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В данной статье рассматривается педагогическое значение игровой деятельности в развитии детей дошкольного возраста. Раскрывается роль игры в интеллектуальном, нравственном, эстетическом и физическом развитии личности ребенка. Анализируются историко-педагогические основы игровой деятельности, виды детских игр, а также особенности педагогического руководства игровой деятельностью в дошкольных образовательных организациях. Обосновывается, что игровая деятельность является эффективным средством активизации познавательных процессов, усвоения социального опыта, формирования коммуникативных навыков и подготовки детей к учебной деятельности.

Ключевые слова: игровая деятельность, дошкольное образование, развитие личности, воспитание, творческие игры, дидактические игры, педагогический процесс, социализация.

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF PLAY ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. This article examines the pedagogical significance of play activity in the development of preschool children. The role of play in the intellectual, moral, aesthetic, and physical development of a child is highlighted. The historical and pedagogical foundations of play activity, the main types of children's games, and the specific features of pedagogical guidance in preschool educational institutions are analyzed. The study substantiates that play activity serves as an effective means of activating cognitive processes, acquiring social experience, developing communication skills, and preparing children for future learning activities.

Keywords: play activity, preschool education, child development, upbringing, creative games, didactic games, pedagogical process, socialization.

Kirish

Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda o'yin faoliyati bolaning hayotida alohida o'rin egallab, uning yetakchi faoliyat turi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin bolaning shaxs sifatida shakllanishi, atrof-muhitni anglash jarayoni hamda ijtimoiy tajribani o'zlashtirishida muhim pedagogik vosita hisoblanadi. O'yin inson o'zligini namoyon etish va takomillashtirish vositasi sifatida qadim zamonlardan buyon pedagoglar, psixologlar va faylasuflar e'tiborida bo'lib kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida o'yin asosiy faoliyat turi bo'lib, u ta'lim va mehnat bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. O'yin jarayonida bolaning idroki, tafakkuri, nutqi, xotirasi, tasavvuri va hissiy-irodaviy sifatлари faol namoyon bo'ladi. O'yin nazariyasining rivojlanishiga ko'plab olimlar munosib hissa qo'shganlar. Xususan, Yan Amos Komenskiy, Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy, Anton Semenovich Makarenko va Pyotr Frantsevich Lesgaftlarning ilmiy qarashlari zamonaviy o'yin pedagogikasining nazariy asoslarini tashkil etadi. K.D. Ushinskiy bolalar o'yinini inson tomonidan yaratilgan qudratli tarbiyaviy vosita sifatida baholagan. Uning ta'kidlashicha, o'yinda bolaning tabiiy ehtiyojlari va qiziqishlari o'z ifodasini topadi. Yan Amos Komenskiy esa o'yinni bolalar tabiatiga mos keladigan faoliyat shakli deb hisoblab, uni bolaning aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida tavsiflagan. Olimning fikricha, o'yin jarayonida bolaning qobiliyatlari rivojlanadi, dunyo haqidagi tasavvurlari kengayadi va nutqi takomillashadi. Shu bilan birga, bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish hamda ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. P.F. Lesgaft bolalar o'yinlarida atrof-muhitdan olgan taassurotlarini aks ettirishlarini ta'kidlaydi. Bu esa o'yinning ijtimoiy mohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, o'yin orqali bolalar real hayotni, kattalar faoliyatini va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'ziga xos tarzda tasvirlaydilar. O'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida inson mehnat faoliyati bilan bog'liq holda shakllangan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. U jamiyat hayotidagi o'zgarishlarni aks ettiradi va mazmunan doimo yangilanib boradi. Shu sababli o'yin bolalarni kelajakdagi hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlashning samarali vositasi sifatida qaraladi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar o'yin faoliyati asosida bolaning o'quv faoliyati shakllanishini ko'rsatadi. O'yin davomida bola mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish hamda o'z faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qish uchun zamin yaratadi. Ilk yoshdagi bolalar o'yin faoliyatining dastlabki bosqichi tanishtiruvchi o'yin hisoblanib, u narsa-buyumlar bilan bajariladigan harakatlar orqali amalga oshiriladi. Keyinchalik aks ettirish o'yinlari shakllanadi. Ushbu bosqichda bolalar buyumlarning nomi, vazifasi va ulardan foydalanish usullarini o'zlashtirib, o'yin jarayonida qo'llay boshlaydilar. Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshda syujetli o'yin elementlari paydo bo'ladi. Bola buyumlardan foydalanish usullarini aks ettiradi. Keyingi bosqichda esa rolly o'yinlar shakllanib, ularda bolalar kattalarning mehnat faoliyati hamda ijtimoiy munosabatlarini tasvirlaydilar. Bolalar o'yinlari mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra ijodiy hamda qoidali o'yinlarga bo'linadi. Ijodiy o'yinlarda bolalar syujet, mazmun va qoidalarni mustaqil ravishda belgilaydilar. Bu jarayonda ularning ijodkorligi, tashabbuskorligi va mustaqilligi namoyon bo'ladi. Qoidali o'yinlarda esa mazmun va qoidalar kattalar tomonidan belgilanadi. Didaktik, harakatli, musiqaviy va ermak o'yinlar ushbu turkumga kiradi. O'yin bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. U bolaning aqliy faoliyatini faollashtiradi, tasavvuri va tafakkurini rivojlantiradi, bilimlarini mustahkamlaydi hamda yangi tushunchalarni egallashiga yordam beradi. Ayniqsa, ijodiy o'yinlar davomida bolalar o'z bilim va tajribalaridan foydalanib, yangi obrazlar yaratadilar, turli vaziyatlarni modellashtiradilar va mustaqil xulosalar chiqaradilar. O'yin axloqiy tarbiyaning ham

muhim vositasi hisoblanadi. O‘yin jarayonida bolalarda do‘stlik, hamkorlik, o‘zaro yordam, mas‘uliyat va intizom kabi sifatlar shakllanadi. Birgalikdagi o‘yin faoliyati bolalarni umumiy maqsad asosida birlashtirib, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yin mehnat tarbiyasida ham alohida ahamiyatga ega. Bolalar o‘z o‘yinlarida turli kasb egalari faoliyatini aks ettirish orqali mehnatning mazmuni va ijtimoiy ahamiyatini anglay boshlaydilar. Natijada ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Jismoniy tarbiya tizimida ham o‘yin muhim o‘rin tutadi. Faol harakatlarga asoslangan o‘yinlar organizmning normal rivojlanishiga, harakat ko‘nikmalarining shakllanishiga va sog‘lom turmush tarziga xizmat qiladi. Harakatli o‘yinlar qon aylanishini yaxshilaydi, chaqqonlik, epchillik va chidamlilik sifatlarini rivojlantiradi. Pedagogik jarayonda o‘yinga rahbarlik qilish tarbiyachining muhim vazifalaridan biridir. O‘yin mazmunining tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos kelishi hamda ularda ijobiy hissiy holatni yuzaga keltirishi zarur. Tarbiyachi o‘yin orqali bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik, rostgo‘ylik va o‘zini boshqara olish kabi fazilatlarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining muhim omili va yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. O‘yin bolaning aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga kompleks ta‘sir ko‘rsatadi. U bolalarda ijtimoiy tajriba, muloqot madaniyati, ijodiy fikrlash hamda mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘yin faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish va unga ilmiy asoslangan pedagogik rahbarlikni amalga oshirish ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2013. – 320 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975.
4. Ushinskiy K.D. Pedagogik asarlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1950.
5. Makarenko A.S. Tarbiya to‘g‘risida ma‘ruzalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988.
6. Lesgaft P.F. Oila tarbiyasi va bola rivojlanishi masalalari. – Moskva, 1991.
7. Vygotskiy L.S. Bola psixologiyasi. – Moskva: Prosveshcheniye, 1984.
8. Elkonin D.B. Psixologiya igri. – Moskva: Vados, 1999.
9. Hasanboyeva O., To‘raqulova X., Haydarova M. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
10. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A‘zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.